

“Kreditga chegirmalar”
aksiyasini o‘tkazish qoidolari

MUNDARIJA

1. Umumiy qoidalar;
2. Atama va ta’riflar;
3. Aksiya tashkilotchisi;
4. Aksiyada ishtirok etish tartibi;
5. Ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari;
6. Tashkilotchilarning huquq va majburiyatlari;
7. Mas’uliyat;
8. Nizolarni hal qilish tartibi;
9. Boshqa shartlar.

1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. “TBC Credit” MMT MChJ (bundan keyin - MMT) ning **“Kreditga chegirmalar”** (bundan keyin - Aksiya) deb nomlangan ushbu Aksiya qoidolari Aksiyada ishtirok etish shartlari va tartibini belgilaydi.
- 1.2. Aksiya lotereya, tavakkalchilikka asoslangan o‘yin yoki unda ishtirok etish uning ishtirokchilari uchun mulkiy tavakkalchiliklarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa tadbir hisoblanmaydi. Aksiyaning o‘tkazish ishtirokchilar tomonidan ishtirok etish uchun hech qanday to‘lov to‘lashni talab qilmaydi.
- 1.3. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Qoidalar Tashkilotchining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan: <https://tbccredit.uz/>.
- 1.4. Aksiyaning amal qilish muddati:
Aksiya boshlanish sanasi: 22.07.2026 y.;
Aksiya tugash sanasi: 23.07.2026 y. (shu kuni ham).
Aksiya muddati Boshlanish sanasidan Tugash sanasigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.
- 1.5. Aksiya o‘tkaziladigan joy O‘zbekiston Respublikasi hududi hisoblanadi.
- 1.6. Ushbu Qoidalarining 2-bo‘limida keltirilgan shartlarga javob beradigan har bir Mijoz Aksiyada ishtirok etishi mumkin.
- 1.7. Mahsulotlar va xizmatlarni olish hamda ulardan foydalanish tartibi va shartlari Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatishning Bosh Shartlari (bundan buyon matnda “BSH” deb yuritiladi), shuningdek, MMTning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan boshqa shartnomalar bilan tartibga solinadi.
- 1.8. Ushbu Qoidalarining 1.6-bandida bayon etilgan shartlarga mos keladigan MMT mijozi mazkur ommaviy ofertani qabul qilgan va Aksiyada ishtirok etish shartlariga roziligini bildirgan hisoblanadi.

2. ATAMA VA TA’RIFLAR

Aksiya	“Kreditga chegirmalar” aksiyasi
Aksiyaning o‘tkazish davri	2026-yil 22-iyuldan 2026-yil 23-iyulgacha
Mikroqarz	TBC UZ mobil ilovasi orqali O‘zbekiston Respublikasi hududida jismoniy shaxslarga masofaviy shaklda taqdim etiladigan MMT mahsuloti — bu milliy valyutada 100 000 000 so‘mgacha bo‘lgan miqdordagi pul qarzidir.
Ishtirokchi	MMTning identifikatsiyalangan va tasdiqlangan mijozi - Aksiya o‘tkazilayotgan davrda Mikroqarz olish uchun ariza topshirgan va uni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra MMT uni ma’qullash to‘g‘risida qaror qabul qilgan jismoniy shaxs.
Ilova	AppStore va Play market platformalarida smartfon qurilmalari uchun mavjud bo‘lgan TBC UZ mobil ilovasi.

3. AKSIYA TASHKILOTCHISI

- 3.1. Aksiya tashkilotchisi MMT hisoblanadi.
- 3.1.1. MMTning aloqa ma’lumotlari: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Fidokor ko‘chasi, 10B-uy.
Telefon: +99878 777 2727, pochta: contact@tbccredit.uz.

4. AKSIYADA ISHTIROK ETISH TARTIBI

- 4.1. Aksiyada ishtirok etish uchun Mijoz Aksiya o'tkaziladigan davr mobaynida Ilova (TBC UZ) orqali ariza topshiradi, ya'ni Mikroqarz olish uchun ariza yaratadi va topshiradi.
- 4.2. Ariza Aksiya davrida Ishtirokchi tomonidan Ilovada muvaffaqiyatli boshlangan va yakunlangan bo'lishi hamda kredit arizasini rasmiylashtirish uchun MMT talablariga javob berishi shart.
- 4.3. Arizani ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, MMT skoring natijalari asosida tegishli arizani ma'qullash yoki ma'qullashni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.
- 4.4. Ishtirokchi ushbu Qoidalarining 4.1–4.2-bandlarida ko'rsatilgan shartlarni bajargan va MMT tegishli arizani ma'qullagan taqdirda, Ishtirokchiga Mikroqarz beriladi. Bunda foiz stavkasi tegishli Mikroqarz bo'yicha yillik 49% (qirq to'qqiz foiz)ni tashkil etuvchi maksimal foiz stavkasiga 40%gacha bo'lgan aksiya chegirmasini qo'llash orqali hisoblanadi. Yakuniy foiz stavkasi yillik 29% (yigirma to'qqiz foiz)dan past bo'lishi mumkin emas. Chegirmaning aniq miqdorini hisoblashda skoring ko'rsatkichlari, jumladan, amaldagi kreditning mavjudligi va uning shartlari inobatga olinadi.
- 4.5. Aksiya shartlari Mikroqarz olish uchun arizalarga tatbiq etiladi va Ishtirokchida avval rasmiylashtirilgan yoki amaldagi mikroqarzlarning mavjudligidan qat'i nazar qo'llaniladi.

5. ISHTIROKCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 5.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:
- 5.1.1. Ushbu Qoidalar, Bosh Shartlarda va Tashkilotchi bilan tuzilgan boshqa shartnomalarda nazarda tutilgan hajm va tartibda Aksiya haqida ma'lumot olish;
- 5.1.2. Ushbu Qoidalariga muvofiq Aksiya ishtirokchisi maqomini olish.
- 5.2. Ishtirokchi quyidagi majburiyatlarni oladi:
- 5.2.1. Aksiyada ishtirok etishdan oldin ushbu Qoidalar bilan tanishib chiqish. Aksiyada ishtirok etish ushbu Qoidalar bilan tanishganlikni tasdiqlaydi va Ishtirokchining ularning shartlariga to'liq va so'zsiz roziligini bildiradi.

6. TASHKILOTCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 6.1. Tashkilotchi Aksiyani ushbu Qoidalariga muvofiq o'tkazish majburiyatini oladi.
- 6.2. Tashkilotchi Aksiyaning amal qilish muddatini bir tomonlama tartibda uzaytirishga haqli. Muddatning uzaytirilishi haqidagi ma'lumot 1.3-bandga muvofiq saytlarda e'lon qilinadi va/yoki Mijozlarga boshqa har qanday mavjud aloqa vositalari, jumladan, mobil ilovaga, SMS, push-xabarnomalar va/yoki elektron pochta orqali bildirishnomalar yuborish yo'li bilan yetkaziladi.
- 6.3. Aksiya ishtirokchilarini identifikatsiya qilish va suiiste'molchiliklarning oldini olish maqsadida har bir Tashkilotchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Aksiya maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hajmda Ishtirokchilarning ma'lumotlarini, shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, anketa ma'lumotlarini, hujjatlarni, mijoz bilan o'zaro munosabatlar davomida olingan ma'lumotlarni so'rash va qayta ishlash huquqiga ega.
- 6.4. Tashkilotchi Aksiyani o'tkazish qoidalariga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, 1.3-bandga muvofiq Aksiya to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni saytlarda e'lon qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 6.5. Mijoz pasaytirilgan foiz stavkasini olishga faqat Tashkilotchi Ishtirokchining ushbu Aksiya shartlariga mosligini, shuningdek, Ishtirokchi tomonidan suiiste'mollik, qoidabuzarlik yoki boshqa shubhali yoxud noqonuniy harakatlar alomatlari yo'qligini tekshirib bo'lganidan keyingina da'vo qila oladi.
- Har bir Jamiyat, o'zining asosli fikriga ko'ra, Ishtirokchi quyidagi hollarda pasaytirilgan foiz stavkasini taqdim etishni rad etishga haqli:
- mazkur Qoidalarini buzgan bo'lsa;
 - Aksiya shartlaridan insofsizlarcha foydalangan bo'lsa;
 - noqonuniy foyda olishga qaratilgan harakatlarni sodir etgan bo'lsa;
 - Aksiya shartlarini boshqacha tarzda suiiste'mol qilgan bo'lsa.
- 6.6. Ushbu Qoidalarining 6.5-bandida ko'rsatilgan hollarda, MMT o'z xohishiga ko'ra quyidagi huquqlarga ega:
- a) Mijozga kelgusida Aksiyada ishtirok etishni rad etish;
 - b) Mijozni Aksiya bo'yicha pasaytirilgan foiz stavkasini olish huquqidan mahrum qilish;
 - v) Mijozning kelajakdagi aksiyalar, yutuqli o'yinlar va sodiqlik dasturlaridagi ishtirokini to'xtatib qo'yish yoki bloklash;
 - g) Mijoz hisob qaydnomasining amal qilishini vaqtincha yoki butunlay to'xtatib qo'yish.
- 6.7. Aksiya shartlarini suiiste'mol qilish deganda, shu bilan birga, quyidagi harakatlar tushuniladi:
- bir necha shaxs tomonidan yoki bir shaxsning o'zi bir nechta hisob qaydnomasi yaratishi;

- Aksiyada ro‘yxatdan o‘tish yoki unda ishtirok etish vaqtida noto‘g‘ri, yolg‘on yoki soxta ma‘lumotlarni taqdim etish;
- ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlari, forumlar, qidiruv tizimlarida yoki ma‘lumotni ommaviy joylashtirish va/yoki ommaviy tarqatishning boshqa usullari orqali ishonchsiz, noqonuniy yoki xato ma‘lumotlarni tarqatish;
- hisob qaydnomasi egasi nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga hisob qaydnomasidan foydalanish imkoniyatini berishi.

7. MAS’ULIYAT

- 7.1. Agar majburiyatlarning qisman yoki to‘liq bajarilmasligi Aksiya amal qilish muddati davomida axborot yoki dasturiy tizimlardagi texnik nosozliklar, buzilishlar, xatoliklar, shuningdek, uchinchi shaxslarning, jumladan, hamkorlar va tadbirkorlarning harakati (yoki harakatsizligi) natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, Tashkilotchi ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan majburiyatlarning qisman yoki to‘liq bajarilmasligi uchun javobgar bo‘lmaydi.
- 7.2. Tashkilotchi Aksiyada ishtirok etish doirasida Ishtirokchilarning xatti-harakatlari uchun javobgar emas.
- 7.3. Ushbu Qoidalarining 7.1-bandida ko‘rsatilgan hollarda Tashkilotchi o‘z tizimlarida, shuningdek, Aksiyaning amalga oshirishda ishtirok etuvchi hamkorlar yoki xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar tizimlarida yuzaga kelgan texnik uzilishlar, xatolar va boshqa nosozliklarni bartaraf etish muddatlarini mustaqil belgilashga haqli.
- 7.4. Agar majburiyatlarni bajara olmaslik holati uchinchi shaxslarning, jumladan, hamkorlar, yetkazib beruvchilar va boshqa kontragentlarning ushbu Aksiya shartlarini buzishga olib kelgan qasddan qilingan yoki ehtiyotsizlik oqibatidagi harakatlari yoxud harakatsizligi tufayli yuzaga kelsa, Tashkilotchi mazkur Qoidalar bo‘yicha majburiyatlarni bajara olmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.
- 7.5. Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan barcha masalalar Bosh Shartlarga, Tashkilotchi va Mijoz o‘rtasida tuzilgan boshqa shartnomalarga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etilishi lozim.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

- 8.1. Ushbu Qoidalaridan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog‘liq bo‘lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Tomonlar o‘rtasidagi o‘zaro maslahatlashuvlar va muzokaralar asosida sudgacha hal etilishi lozim. Da’vo qilish tartibi nizolarni ko‘rib chiqish uchun majburiy shart hisoblanadi.
- 8.2. Agar Tomonlar ushbu Qoidalarining 8.1-bandida nazarda tutilgan tartibda nizoli masalalar bo‘yicha kelishuvga erisha olmasalar, nizo O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, MMT ro‘yxatdan o‘tgan joydagi sud tartibida hal etilishi lozim.

9. BOSHQA SHARTLAR

- 9.1. Ushbu Qoidalar Tashkilotchining <https://tbccredit.uz/> veb-saytiga joylashtirilgan.
- 9.2. Aksiya ishtirokchilari yuqorida ko‘rsatilgan saytda joylashtirilgan o‘zgarishlar va yangilanishlarni muntazam ravishda tekshirib, Aksiya shartlarining dolzarbligini mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.
- 9.3. MMT mijozi mavjud aloqa kanallari orqali MMTga tegishli xabarnoma yuborib, ushbu Aksiyada ishtirok etishdan voz kechishga haqli.
- 9.4. MMTning affilangan shaxslari Aksiyada ishtirok etish huquqiga ega emas.